



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
2020- yil yanvar-iyun (dastlabki ma'lumot)



2020- yil yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2417,1 ming so'mni** (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlari, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlari kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlari ham mavjud) tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan **20,1 %** ga o'sishni ta'minladi.

2020-yil yanvar-iyun oylarida

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi:

**2 417,1
ming so'm**

o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati:

120,1 %

Yuridik shaxslarda xodimlar soni va ish haqi fondi (2020- yil yanvar-iyun qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	Korxona va tashkilotlar soni, birlik	Xodimlar soni, kishi	Ish haqi fondi, mln.so'm	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm
Respublika bo'yicha - jami	2966	138 591	2 009 910 ,5	2 417,1
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	37	13 545	306 677,3	3 773,6
Qurilish	12	2 274	33 041,3	2 421,7
Savdo	15	2 021	26 195,4	2 160,3
Tashish va saqlash	9	8 269	175 156,4	3 530,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4	57	1 429,4	4 179,5
Axborot va aloqa	38	1 174	16 942,4	2 405,2
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	87	2 864	84 150,2	4 897,0
Ta'lim	1386	61 901	732 234,3	1 971,5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	83	23 788	282 819,9	1 981,5
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	74	2 307	26 010,7	1 879,1
Boshqa faoliyat turlari	1221	20391	291 297,5	2 380,8

Ish haqi. 2020- yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda.

Ta'lism sohasida 1386 ta muassasada **61901** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 44,7 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **732,2** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 36,4 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1971,5** ming so'mni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 16,9 % ga o'sdi.


**Ta'lism iqtisodiy faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik
nominal hisoblangan ish haqi**

(2020- yil yanvar-iyun kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Ta'lif iqtisodiy faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-iyun kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **2411,5** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 122,3 %), Kegeyli tumanida **2036,2** ming so'mni (103,3 %) va Xo'jayli tumanida **2036,1** ming so'mni (103,3 %) tashkil etgan bo'lsa, Mo'ynoq tumanida **1586,3** ming so'mni (80,5 %), Amudaryo tumanida **1640,0** ming so'mni (83,2 %) va Tuxtako'pir tumanida **1643,8** ming so'mni (83,4 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



Sanoat iqtisodiy faoliyat turida 37 ta korxonada **13545** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 9,8 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **306,7** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 15,3 %ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **3773,6** ming so'mni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 7,7 % ga o'sdi.

Sanoat iqtisodiy faoliyati bo'yicha o`rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-iyun kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)




Ushbu sohadagi o`rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o`rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **6432,3** ming so'mni (respublikadagi o`rtacha oylik ish haqiga nisbatan 170,5 %) tashkil etgan bo'lsa, Qonliko'l tumanida **1342,9** ming so'mni (35,6 %), Xo'jayli tumanida **1410,0** ming so'mni (37,4 %), Kegeyli tumanida **1447,4** ming so'mni (38,4 %) va Taxtako'pir tumanida **1628,4** ming so'mni (43,2 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida **83** ta muassasada **23788** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 17,2 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **282,8** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 14,1 %ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangano'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1981,5** ming so'mni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 24,4 %ga o'sdi.

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish
faoliyati bo`yicha o`rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2020- yil yanvar-iyun kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)**




Ushbu sohadagi o`rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko`rsatkichini respublika hududlari bo`yicha ko`radigan bo`lsak, ya`niy o`rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Shumanay tumanida **2851,3** ming so'mni (respublikadagi o`rtacha oylik ish haqiga nisbatan 143,9 %), Taxtako'pir tumanida **2344,4** ming so'mni (118,3 %), Nukus tumanida **2089,3** ming so'mni (105,4 %) va Nukus shahrida **2035,1** ming so'mni (102,7 %) tashkil etgan bo`lsa, Taxiatosh tumanida **1597,4** ming so'mni (80,6 %), Bo'zatov tumanida **1744,9** ming so'mni (88,1 %) va Beruniy tumanida **1769,9** ming so'mni (89,3 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turida **87** ta muassasada **2864** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,1 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **84,2** mldr. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 4,2 % ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o`rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **4897,0** ming so'mni tashkil etib, 2019 - yilning mos davriga nisbatan 40,4 % ga o'sdi

Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati bo'yicha o'rтacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


(2020- yil yanvar-iyun kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)



Ushbu sohadagi o'rтacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rтacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **5675,4** ming so'mni (respublikadagi o'rтacha oylik ish haqiga nisbatan 115,9 %) tashkil etgan bo'lsa, Amudaryo tumanida **2908,7** ming so'mni (59,4 %), Nukus tumanida **3616,7** ming so'mni (73,9 %) va Taxiatosh tumanida **3892,0** ming so'mni (79,5 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

(2020- yil yanvar-iyun qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, %da)



Respublika bo'yicha 2020- yil yanvar-iyun oylarida 2019- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati tashish va saqlashda 41,5 %, bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatida 40,4 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 24,4 % hamda savdo sohasida 19,5 % kuzatildi.



2020-yil yanvar- iyunda ish haqi eng yuqori bo'lgan:

SOHALAR

Bank, sug'urta, lizing,
kredit va vositachilik
4 897,0 ming so'm



Sanoatda
3 773,6 ming so'm



Tashish va
saqlash
3 530,4 ming so'm



Qurilish
2 421,7 ming so'm



HUDUDLAR


Nukus shahri - **3 023,3** ming so'm

Qo'ng'irot tumani - **2 861,1** ming so'm

Taxiatsosh tumani - **2 367,5** ming so'm



Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
 (2020- yil yanvar-iyun respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **3023,3** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **125,1** %) va Qo'ng'irot tumanida **2861,1** ming so'mni (**118,4** %) tashkil etgan bo'lsa, Qonliko'l tumanida **1777,5** ming so'mni (**73,5** %), Beruniy tumanida **1783,5** ming so'mni (**73,8** %) va Bo'zatov tumanida **1791,4** ming so'mni (**74,1** %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Ma'lumot uchun: “O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi” ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjalariiga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarini o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2019- yildagi PQ-4555-soni "2020- yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, joriy yilning 1- fevralidan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 679 330 so'mni tashkil etadi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi bo`yicha o`rtacha
oylik nominal hisoblangan ish haqi**
(yanvar-iyun qishloq xo`jaligi va kichik tadbirkorlik
subyektlaridan tashqari, ming so'm)

	2019- yil	2020- yil	O'sish sur'ati, %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2013,2	2417,1	120,1
Nukus shahri	2509,1	3023,3	120,5
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	1566,0	2069,4	132,1
Beruniy	1634,7	1783,5	109,1
Bo`zatov	1732,5	1791,4	103,4
Qorao`zak	1565,2	1899,8	121,4
Kegeyli	1747,4	1986,6	113,7
Qo`ng`irot	2205,9	2861,1	129,7
Qonliko'l	1820,3	1777,5	97,6
Mo`ynoq	2127,2	1872,7	88,0
Nukus	1703,7	2290,4	134,4
Taxiyatosh	1843,5	2367,5	128,4
Taxtako'pir	1737,7	1795,4	103,3
To`rtko'l	1744,8	1949,0	111,7
Xo`jayli	1771,4	2014,5	113,7
Chimboy	1694,6	1955,5	115,4
Shumanay	1607,2	2186,5	136,0
Ellikqal'a	1680,4	2011,1	119,7

**Qoraqalpog'iston Respublikasi
statistika boshqarmasining
Demografiya va mehnat statistikasi
bo'limi**

Tel: (71) 230-92-17, (61) 222-76-57